

**MODERN VA POSTMODERN SAN'AT ASARLARINING  
O'ZIGA XOS JIHATLARI**

09.00.00-Falsafa fanlari  
*Tursunkulova Shaxnoza Tuychiyevna*  
Alfraganus university  
*Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti*  
ORCID: 0009-0002-8931-1341

**Annotatsiya.** Maqolada, zamonaviy san'atning jamiyat madaniy hayotidagi, shaxs estetik ongingin shakllanishidagi o'ziga xos xususiyatlari, unga ta'siri xususida falsafiy fikr-mulohazalar yuritilgan. Modernizm, postmodernizm san'at asarlari tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** San'at, estetik ong, modernizm, postmodernizm, zamonaviy san'at.

**ОСОБЕННОСТИ ПРОИЗВЕДЕНИЙ МОДЕРНА И ПОСТМОДЕРНА**

Турсункулова Шахноза Туйчиевна  
Alfraganus university  
доцент кафедры социальных наук

**Аннотация.** В статье даются философские комментарии об особенностях современного искусства в культурной жизни общества, в формировании эстетического сознания личности и его влиянии на него. Анализируются художественные произведения модернизма и постмодернизма.

**Ключевые слова.** Искусство, эстетическое сознание, модернизм, постмодернизм, современное искусство.

**FEATURES OF MODERN AND POSTMODERN WORKS.**

Tursunkulova Shakhnoza Tuychiyevna  
Alfraganus university  
Associate Professor of the  
Department of Social Sciences

**Annotation.** The article provides philosophical comments about the features of modern art in the cultural life of society, in the formation of the aesthetic consciousness of the individual and its influence on him. The artistic works of modernism and postmodernism are analyzed.

**Keywords.** Art, aesthetic consciousness, modernism, postmodernism, contemporary art.

## KIRISH

San'at taraqqiyoti davomida juda ko'p yo'nalish va oqimlari ta'sirida o'zining xilma-xilligi, rang barangligi, umuman olganda sinergetik xususiyatini saqlab keldi. Bu jarayon o'z navbatida tarixiylik, ham zamonaviylik nuqtayi nazaridan bevosita jamiyat hayotining estetiklashuviga, estetik madaniyatning shakllanishiga va shaxs estetik ongi va faoliyatidagi o'zgarishlarga ta'sir ko'rsatmay qolmaydi. Har bir davrning o'zining zamonaviy san'at asarlari bo'lganidek, hozirgi kunda ham zamonamizning o'ziga xos san'at ko'rinishlari va yo'nalishlari, oqimlari mavjud bo'lib, san'atshunoslar, faylasuf va estetika nazariyotchilari va olimlarini doimo izlanishga, tadqiqot olib borishga undab kelmoqda. Shu bois zamonaviy san'atning shaxs estetik ongi va madaniyati yuksaltirishdagi subyektiv va obyektiv imkoniyatlarini ko'rsatib berish mavzumizning dolzarbligini ko'rsatadi.

## ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Modern va postmodern san'at asarlarining o'ziga xos xususiyatlari (Fatih Cam), XX asr modern adabiyoti manzaralari (Xolbekov M), san'atda kashfiyotlar (Shiner L), zamonaviy – postmodern badiiy ijod kontekstida xattotlik (Fatih Cam), postmodernning ko'rinishi, postmodern yo'nalishning sinergetik jihatlari, postmodernizmning mohiyati, ildizlari va belgilari (Yo'ldosh Q), shaxs estetik ongingin shakllanishida san'atning o'rni va sinergetik xususiyatlari mazkur ishda tahlil qilingan.

Zamonaviy san'at tushunchasini anglash uchun avvalo modernizm tushunchasining mohiyatiga e'tiborimiz qaratilib, asosan, etimologik nuqtayi nazardan o'rganildi. Doimiy ravishda oshirib boriladigan estetik bilim va tajribalar insoniyat hayotida san'atning ahamiyatini yanada oshirishi estetik-axloqiy manbalar, tarixiy metodologiya, san'atshunoslik, adabiyotshunoslik manbalarini tahlillari asosida falsafiy metodologiya o'rganildi. Estetik bilim, estetik tajriba, estetik did, estetik nazariyalarning shakllanib borishi shaxs estetik ongingin yuksalishiga o'z ta'sirini ko'rsatib borishining umumnazariy jihatlari asoslangan.

## MUHOKAMA

Etimologik jihatdan, "zamonaviy" so'zi lotincha "modernus" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "Modernus" so'zi esa lotincha "Modo" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, "hozir" degan ma'noni anglatadi. "Modern" so'zi birinchi marta "Modernus" lotin shaklida "xristian olamini Rim va butparast o'tmishidan ajratish uchun ishlatilgan. [1.31] Shuningdek, modernizm va modern atamalarini bir-biridan ajratib talqin qilish joizdir. Masalan, ularning ingliz tilida modernism (modernizm), modern movement (zamonaviy harakat), modern art (zamonaviy san'at), nemis tilida die Moderne (zamonaviylik), fransuz tilida modernisme (modernizm), modernité (zamonaviylik), moderne (zamonaviy, yangi), ispan tilida modernismo (zamonaviy),

moderno (hozirgi, yangi) qabilidagi lug‘aviy ma’nolari mavjud. [2.3]

Modernizmning estetik ongni shakllantirishdagi o‘ziga xos xususiyati shundaki, u insonga va uning estetik ongini shakllantirishga bo‘lgan ishonchidir. Bu estetik ishonch, zamonaviylik tarixini tushunishni anglatadi. Ma’lumki, estetik ong tarixiy jihatdan progressiv jarayon sifatida doimo shakllanib, boyib, insonning badiiy tafakkuri va madaniyatiga ta’sir ko‘rsatib boradi. Doimiy ravishda oshirib boriladigan estetik bilim va tajribalar insoniyat hayotida san’atning ahamiyatini yanada oshiradi. Estetik bilim, tajriba, did, nazariyalarning shakllanganligi “shaxs estetik ongining yuksalishi”ni namoyon qiladi.

Modernizm XVIII asr ma’rifat falsafasi bilan kundalik ijtimoiy hayotni “cherkov” dan ajratib (aniqrog‘i najot topib) yuzaga kelgan. Aytish mumkinki, u o‘z sharoitida ratsionallik va pozitivism tushunchalari bilan oziqlangan. Zamonaviy fikr nafaqat u ko‘rgan, eshitgan va tanigan narsaga shubha bilan qaradi, balki tanqidiylik birinchi o‘ringa chiqdi. Shu ma’noda tanqid zamonaviy ilmiy fikr va yondashuvning eng asosiy xususiyatlardan biri sifatida qabul qilindi. Modernizm o‘rtalarda insoniyatni fanatizmdan, taraqqiyotdan orqada qolishdan ozod qilishga va insoniyatning yanada yuqori darajasiga erishishiga intildi.

M. Xolbekovning fikricha, “modernizm” – bu zamonlar oralig‘idagi tafovutni, “eskilik” va “yangilik” o‘rtasidagi ixtiloflarni o‘z g‘oyaviy qarashlari bosh mezoni qilib olgan yuz yillikning ma’naviy qiyofasidir. Uning ortida “xudolar o‘limi” (F.Nitsshe), Yevropa xaritasini qayta tuzgan siyosiy inqiloblar va ilmiy kashfiyotlar, totalitar tuzumga asoslangan diktaturalar, xunrezli urushlar, informatsion portlashlar, sivilizatsianing koinotga chiqishi kabi global o‘zgarishlar yetibdi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo‘lsak, uning ortida “markazsiz dunyo” (U.B.Yeyts)ning paydo bo‘lishiga sabab, obyektiv borliq va tarixda chuqr ildiz otolmaganligi, mustahkam o‘rnashib ololmaganligi, epistemologik dudmolligi, muayyan shaklga keltirilgan utopik (ilmga asoslanmagan, amalga oshmaydigan, xomxayol) orzu-umidlar va shaklsiz, noaniq antiutopik voqelik o‘rtasidagi hal qilib bo‘lmaydigan ziddiyatlarning mavjudligidadir.» [2.4]

Modernistik san’atni idrok qilinishi Larri Shinerning “Lar san’atining ixtirolari” kitobida ayttilishicha, 1890 yillarda boshlangan. Lui Sullivan “shakl so‘zning vazifasiga bog‘liq” degan ma’noni anglatsada, arxitekturadagi bu munozarani zamonaviy san’atni idrok etishning xronologik boshlanishi sifatida ko‘rish mumkin. [4:343-350] San’atdagi modernizmning in’ikosi diniy obyektlar asta-sekin dunyoviy (diniy) subyektlar bilan almashinadigan haqiqat sifatida namoyon bo‘ldi. San’atning dunyoviylashuvi XIX asrda din (cherkov) bilan radikal tanaffus sifatida boshlandi. Kant ushbu tanaffusda muhim rol o‘ynaydi. Dindan ilm-fanga, estetikadan san’atgacha har bir soha o‘z chegaralarini belgilashi uchun o‘ziga va atrofiga tanqidiy qarashga to‘g‘ri keldi. Zamonaviylik g‘oyasi jamiyatni markazini ilm bilan almashtiradi va diniy

e’tiqodni faqat shaxsiy hayotda mumkin bo‘lgan eng yaxshi joyda qoldiradi, deb ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, zamonaviylik Xudoni istisno qiladi. Xudoning irodasi o‘rniga, u ilmiy fikrni, insonning ongini joylashtiradi. [1:31]

Modernizm – bu umumiy dunyoqarashga ega bo‘lgan bir qator adabiyot va san’at yo‘nalishlari majmuasi bo‘lib, u hamma ko‘nikib qolgan, an’anaviy tus olgan badiiy obrazlarning ayrim ijobiliy va salbiy xislatlarini alohida ajratib ta’riflagan holda, qolgan jihatlarni parchalarga bo‘lib tashladi. Masalan, san’atkorning bevosita obraz mazmuniga, uning asl mohiyatiga me’yordan oshiq diqqat-e’tibor qaratganligi naturalizm; obrazning favqulodda bo‘rttirib tasvirlangan holati abstraksionizm, jo‘sinqin va hayajonli his-tuyg‘ular bilan to‘yintirib ifodalanganligi esa ekspressionizm; ortiqcha mazmundorlik va ko‘p ma’nolikning kashf qilinishi bevosita syurrealizm yo‘nalishlarini keltirib chiqardi. Modernizm taxminan uch ijodiy muhit bilan birgalikda kechdi. Ular postsimvolizm va avangardizm (1910-40y.); ekzistensializm (1940-60 y.) va postmodernizm (1980-2000y.) dir.

XX asrda san’atda modernizm yo‘nalishi etakchilik qildi, oshkor va nooshkor “modernistlar”, “modernizm” zamondoshlari va “kontrmodernist”lar guruhi paydo bo‘lgan. XX asrning oxirlarida san’atning yetakchi oqimlaridan sanalgan modernizm tanqidiy realizm, xususan sotsialistik realizm aqidalariga qarama-qarshi pozitsiyada turgan adabiy oqim bo‘lib, asrning oltmishinchi yillarda o‘z umrini yashab bo‘ldi va o‘rnini postmodernizm yangi oqimga bo‘shatib berdi.

Postmodernizm tushunchasi falsafiy nuqtayi nazardan olib qaraganda, plyuralistik hamda eklektik xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. “Post” prefeksi ingliz tilida, keyingi, izidan, ketma-ket degan ma’nolarni anglatadi. 1939-yilda Arnold Toynbi birinchi marta o‘zining “Tarixni o‘rganish” kitobida zamonaviy davr Birinchi Jahon urushi bilan yakunlanganini va postmodernizm davri 70-yillardan boshlab o‘zgarganligini yozadi. Xususan, Jan - Fransua Liotarning 1979-yilgi postmodern holatiga kitob katta ta’sir ko‘rsatgan va ushbu davrni “postmodernizm davri” deb ta’riflaydi.

G‘arb olimlari postmodernizmni estetika, psixanaliz, adabiyotshunoslik nuqtai nazaridan kompleks tarzda o‘rganishgan. Masalan, J.F. Liotar, J. Bodriyar, J. Derrida, R. Lakana, Barta, P. Kozlovski, U. Ekolarning asarlarida postmodernizm fenomeni estetik nuqtai nazardan kompleks tarzda tahlil qilingan. [4.] Shuningdek, slavyan faylasuf olimi S. Jijeka ham postmodernizm san’atining sotsiologik jixatlarini tadqiq etganligini ham aytib o‘tish mumkin. [5]

Romantizm (F.Shlegel), simvolizm (S.Mallarme) va ekzistensializm (M.Xaydegger) tarafдорлари, germenevtika (V. Diltey), lingvistik falsafa (L.Vitgenshteyn) namoyandalari tafakkuridagi she’riyat va falsafaning bir-biriga yaqinlashishi R. Bart va M. Blansholardan tashqari postmodern falsafa va tanqidning

boshqa yirik arboblariga ham, masalan, fransiyalik strukturalizm va poststrukturalizm tarafdori, faylasuf Jak Lakan (Jacques Lacan, 1901-1981)ga, postmodern falsafa va adabiyot nazariyachisi Jan-Fransas Liotar (1924-1998)ga, madaniyat va tarix nazariyotchisi Mishel Fuko (1926-1984)ga, falsafa va adabiyotda dekonstruktivizm asoschisi Jak Derrida (1930-2004)ga, semiotik olma Yuliya Kristeva (1941)ga u yoki bu darajada xosdir.

Postmodern yozuvchilar – fransiyalik Filipp Sollers (1936); italiyalik neorealizm namoyandasi Italo Kalvino (1923-1985), yozuvchi va medievist olim Umberto Eko (1932); amerikalik postmodern yozuvchilar – Djon Simmons Bart (1930) va Donald Bartelmi (1931), Folkner mukofoti laureati (1963) Tomas Pinchon (1937) serbiyalik shoir va tarjimon Milorad Pavich (1929), chexiyalik adib Milan Kundera (1929) ijodida biz sinkretizm holatlarini kuzatamiz. Masalan, postmodernizm Umberto Eko (1928) – mediavist adib va faylasuf olimning ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Umberto Ekoning – “Atirgul nomi” (1980) romani postmodern san’at asari bo‘ldi. Ushbu asar fransiyalik kinorejissyor Jan-Jak Anno tomonidan muvaffaqiyatli ekranlashtirilgach yanada mashhur bo‘lib ketdi. “Atirgul nomi” – g‘alati ko‘rinishdagi nozikta’b uslubda bitilgan falsafiy ramzlarga boy hikoya va tavsiflar, adabiy va madaniy tasavvurlarning pinhoniy ko‘rinishlari, detektiv va tarixiy roman janrlarining qorishib ketuvidan yuzaga kelgan besteller roman bo‘lib, tez orada sershovqin bahs-munozaralarga sabab bo‘ldi. Qolaversa, “maroqli adabiyot” deb nom olgan butun bir adabiy nazariyaga asos solgan muallifga kitobxon e’tiborini qaratdi. Ayni paytda, o‘zining g‘ayri-tabiiy g‘oyalari tahlili, “reallik” va “absolyut haqiqat” tushunchalariga nisbatan skeptitsizm talqini bilan Eko zamonaviy intellektual (intellectus – lot.) ya’ni zakovatli prozaning taraqqiyotiga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi. Shuningdek, adibning “Fuko mayatnigi” (1988), “Arafa oroli” (1994) deb nomlangan romanlari ham postmodern san’at namunalaridir.

Postmodernistik san’at asarlari adabiyotshunoslikdan tashqari me’morchilik-arxetekturnada, kino san’atida, so‘z san’atida, hattotlik san’atida, tasviriy san’atda va boshqa san’at turlarida yorqin namoyon bo‘lgan. Natijada postmodern yozuvchi, rassom, faylasuf, me’mor va postmodern san’at asarlari mualliflari shakllangan. Demak, postmodernistik san’at asarlari o‘ziga xos estetik ong va madaniyatning shakllanishi uchun turtki bo‘lgan. Ya’ni pop-art, kino madaniyati, multimedya, ko‘ngilochar shouular, rok konsertlar va boshqa madaniyat shakllari davri bo‘lgan.[6]

Ijodiy jihatdan postindustrial muhitning madaniyatiga ham ta’siri bo‘lgan, ayniqsa, AQSHdagi muhit reklama, kinematografiya, televidenie, Disneylend, ulkan savdo gipermarketlari va “Makdonalds” kafe tarmog‘i kabi bir andozali arxitektura va hokazolar yuzaga kelgan. Bugungi kunda Nyu-York san’at sahnasi taniqli rassomlarga, ulkan ko‘rgazmalarga, yangi joriy loyihalarga va milliard dollarlik kim

oshdi savdolariga, yonma-yon birlashib ketadigan ikkita oddiy so‘zga: “Post-Modernizm”, ya’ni postmodernizmga tegishlidir.

Postmodernizm san’at asarlarining o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, ular qoidalar va obyektlarsiz yoki oddiy cheklovlarsiz ishlaydi. Bu jarayon stilistik norma va usullarning xilma-xilligi bilan namoyon bo‘ladi. Posmodernizm san’at asarida badiiy shakllarning emas, balki bu shakllarning o‘zaro bog‘liqligi o‘rganiladi. Diskret rasmlar va texnologiyalarni birlashtirish kun tartibiga manba yoki mualliflik g‘oyasini olib keladi.

Postmodernizmning bunday qizg‘in konsepsiyalardan tashkil topganligi, ko‘plab sohalarda ishlatiladigan atama bo‘lganligi sababli paydo bo‘lgan turli xil xilma-xilliklar ichida ba’zi bahslarga olib keladigan ma’lumotlarga to‘la. Postmodernizm san’atning shakllanishiga va uning modernizm bilan bog‘liqligiga asoslangan ushbu tadqiqotda berilgan ma’lumotlarga ko‘ra postmodernizmning hozirgi zamon bilan ham aloqasi bor, unda zamonaviy davrning ba’zi estetik qadriyatlarini o‘z ichiga olganligi kuzatilmoqda.

Modernizm va postmodernizmning o‘ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqib aytish mumkinki, **birinchidan**, modernizm uchun mavjud estetik qoliplarga bo‘ysunmaslik, san’atkorning o‘z-o‘zini ifodalash erki va ijodiy betakrorlik ideal sanalgan bo‘lsa, postmodernizm dunyoni egallab olgan texnik aurada tartib va betakrorlik yo‘qligidan kelib chiqib, individual ijodiy erkinlik o‘rniga o‘zgalarning badiiy yaratiqlarini juz’iy o‘zgartishlar, o‘yin va estetik nayrang vositasida badiiy o‘zlashtirishni muhim deb hisoblaydi. **Ikkinchidan**, postmodernizmda san’at bilan borliq, shuningdek, san’atning ichki turlari o‘rtasidagi odatiy farqlar yuvilib, chegarasizlik va qorishiqlik universal tus oladi. Unda estetik interpretatsiya badiiy innovatsiyani siqib chiqarib, o‘tmishda mashhur bo‘lgan asarlarga taqlid, ularni muayyan o‘zgarishlar bilan yangicha taqdim va talqin etish kuchayadi. **Uchinchidan**, modernizmda bevosita hayotning o‘ziga tayanib, mavjud adabiy an'analar inkor qilingan bo‘lsa, postmodernizmda hayotning o‘zi bo‘laklarga ajratilib qayta qurilishi, ya’ni dekonstruksiya qilinishi kerak bo‘lgan badiiy vosita va unsurlar yig‘indisi tarzida qabul qilinadi.

Postmodern san’at o‘zidan oldingi boshqa yo‘nalishlardan badiiy yaratilishidan ko‘ra uning yaratilish kechimiga; muallifga qaraganda o‘quvchilar ommasiga; verbal (og‘zaki)likka nisbatan vizuallikka ko‘proq e’tibor qaratishi bilan ajralib turadi. Postmodern san’at asarlari dunyoning betartib (xaos)ligi, boshboshdoqligi, o‘tkinchi va ongsizligidan iborat postmodern manzarasini berish uchun ko‘proq tasavvur, tush, ongsizlik singari holatlarni o‘z tasvir obyekti va vositasiga aylantiradi.

**Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Fatih Cam. Modern - postmodern sanat algisi bağlaminda hat sanati. Süleyman Demirel Üniversitesi Güzel Sanatlar Fakültesi Hakemli Dergisi ART-E Mayıs-Haziran’13 Sayı:11. – 31-s
2. Холбеков М. XX аср модерн адабиёти манзаралари. Тошкент. Мумтоз, 2013, – 3 б.
3. Shiner L. Sanatın İcadı, Ayrıntı Yayınları (2. Basım), İstanbul. 2010. – 343-350 s.
4. Бодрийар Ж. Символический обмен и смерть. / Ж. Бодрийар. – М.: Добросвет, 1995; Барт Р. Camera lucida. / Р. Барт. – М.: Ad marginem, 1997; Лиотар Ж.-Ф. Состояние постмодерна. / Ж.-Ф. Лиотар. – СПб.: Алетейя, 1997; Эко У. Открытое произведение: Форма и неопределенность в современной поэтике. / У. Эко. – СПб.: Академический проект, 2004; Козловски П. Культура постмодерна. / П. Козловски. – М., 1997.
5. Жижек С. Хрупкий абсолют, или почему стоит бороться за христианство. / С. Жижек. – М.: Художественный журнал, 2003; Жижек С. Возвышенный объект идеологии. С. Жижек. – М.: Художественный журнал, 1999.
6. Турсункулова Ш. Шахс эстетик онгининг шаклланишида санъатнинг ўрни ва синергетик хусусияти. фал.фан.буйича фалс.док. дис. автореферати. – Т.: 2020.